



**Qurilish ishlari
hajmi**

3910,6 mlrd. so'm

Yirik
tashkilotlar ulushi
2,9 %

Kichik korxona va
mikrofirmalar ulushi
62,5 %

Norasmiy sektor
ulushi
34,6 %

**2019 yilning yanvar – noyabr oylarida
QURILISH ISHLARI**

2019 yilning yanvar – noyabr oylarida Samarqand viloyatida **3910,6** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan 2018 yilning shu davriga nisbatan **121,3** foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **113,0** mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,3** martani tashkil qildi.

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **2444,9** mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **133,4** foizni tashkil qildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlari hajmi **1352,7** mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan **100,3** foizni tashkil etdi.

**Qurilish tashkilotlari tomonidan
bajarilgan qurilish ishlari**

Yirik

tashkilotlar

➤ **113,0**
mlrd. so'm

➡ **227,3 %**
o'sish sur'ati

Kichik

korxona
va mikrofirmalar

➤ **2444,9**
mlrd. so'm

➡ **133,4 %**
o'sish sur'ati

Norasmiy

sektor
tomonidan

➤ **1352,7**
mlrd. so'm

➡ **100,3 %**
o'sish sur'ati



Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning hajmi **2994,5** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **76,6** % ni, o'sish sur'ati **145,1** % ga oshdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda **389,8** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **10,0** % ni, o'sish sur'ati **142,7** % ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari **526,3** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **13,4** % ni, o'sish sur'ati **3,5** martaga oshdi.



Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun mo'ljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yo'llarini ta'mirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha obyektlari (maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.



Iqtisodiy faoliyat turlarining mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari





Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan **3359,3** mld. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining **85,9** foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning o'sish sur'atiga nisbatan **17,7** bandga ko'paydi.



Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan **551,3** mld. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **14,1** foizini tashkil qildi.






Hududlar kesimida qurilish ishlari

	Jami mlrd. so'm	o'tgan yilga nisbatan, (%)	jam'i hajmga nisbatan ulushi, (%)
Viloyat bo'yicha	3910,6	121,3	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Samarqand sh.	1284,6	123,0	32,8
Kattaqo'rg'on sh.	88,1	124,1	2,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	302,5	126,3	7,7
Bulung'ur	113,2	124,1	2,9
Jomboy	203,1	126,3	5,2
Ishtixon	203,7	121,2	5,2
Kattaqo'rg'on	148,2	119,6	3,8
Qo'shrabot	118,2	120,9	3,0
Narpay	151,7	116,3	3,9
Nurobod	88,5	129,0	2,3
Payariq	237,1	117,5	6,1
Pastdarg'om	238,0	113,9	6,1
Paxtachi	140,0	116,8	3,6
Samarqand	204,8	132,9	5,2
Tayloq	172,5	113,2	4,4
Urgut	216,4	113,5	5,5




Hududlar kesimida qurilish ishlari

(mlrd. so'm)




Qurilish ishlari hajmini o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichda bajarilishi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi. Jumladan, Samarqand shahrida – **1284,6** mlrd. so'm, Oqdaryo tumanida – **302,5** mlrd. so'm, Pastdarg'om tumanida – **238,0** mlrd. so'm, Payariq tumanida – **237,1** mlrd. so'm hamda Urgut tumanida – **216,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari (foiz hisobida)



Qurilish ishlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori darajadagi o'sish sur'atlari quyidagi hududlarda kuzatildi. Jumladan,

01

Samarqand tumanida – 132,9 %

02

Kattaqo'rg'on shahrida – 124,1 %

03

Jomboy tumanida – 126,3 %

04

Oqdaryo tumanida – 126,3 %

05


Nurobod tumanida – 129,0 % ni tashkil qildi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari

(jami hajmga nisbatan foizda)



Samarqand viloyat statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

I.Raxmatov
(66) 235-60-82

